

SAYTDAN FOYDALANISH SHARTLARI VA QOIDALARI

“O‘zagrosug‘urta” AJ (*keyingi o‘rinlarda – Jamiyat deb ataladi*) o‘z mijozlari va sayt foydalanuvchilari (*keyingi o‘rinlarda – Foydalanuvchi deb ataladi*) uchun xizmatlar paketi yoki alohida xizmat sifatida Jamiyatga tegishli bo‘lgan ma‘lumotlarni Butunjahon Internet tarmog‘idagi sayt(lar)da (*keyingi o‘rinlarda – sayt deb ataladi*) joylashtiradi.

1. FOYDALANISH SHARTLARI VA QOIDALARI

Jamiyat foydalanuvchilar tomonidan quyida keltirilgan saytdan foydalanish shartlari va qoidalariga rioya qilishni talab qiladi. Foydalauvchi saytdan foydalanish shartlari va qoidalariga o‘z roziligini saytga va undan keyin istalgan sahifaga kirish paytidan boshlab bildirgan hisoblanadi. Jamiyat istalgan vaqtda foydalanish Shartlari va qoidalarini yangi nashrini chop etish orqali ularni o‘zgartirish huquqiga ega. Barcha Foydalanuvchilar uchun barcha o‘zgarishlar majburiy hisoblanadi. Quyida keltirilgan saytdan foydalanish Shartlari va qoidalari Jamiyatning intellektual, egalik va boshqa mulklarini himoya qilishga qaratilgan.

2. AXBOROT XAVFSIZLIGI

Foydalanuvchi saytdan foydalanish Shartlari va Qoidalariga asosan saytda bo‘lgan va undan foydalangan vaqti mobaynida olgan va/yoki foydalangan ma‘lumotlarining xavfsizligini ta‘minlovchi O‘zbekiston Respublikasi hududida amal qiladigan qonun hujjatlariga rioya etishi shart.

3. INTELLEKTUAL MULQ HAQIDA MA‘LUMOT

Barcha tovar belgilariga va Jamiyat va u bilan bog‘liq uchinchi shaxslarning intellektual mulklariga bo‘lgan huquq, mos ravishda, o‘z egalarida qoladi. Saytdan foydalanish Shartlari va qoidalariga binoan hech bir narsa Foydalanuvchiga Intellektual Mulkning biror turiga bo‘lgan huquqni topshirish yoki o‘tkazish istagi sifatida izohlanmasligi kerak. Foydalanuvchi saytda taqdim etilgan barcha intellektual mulk va uning elementlaridan faqat tanishish uchun foydalanishi mumkin. Barcha huquqlar himoyalangan.

Foydalanuvchi saytning istalgan sahifasida joylashgan, Jamiyat tomonidan ro‘yxatdan o‘tkazilgan yoki unga tegishli bo‘lgan har qanday ma‘lumotni faqat shaxsiy foydalanish yoki ko‘rib chiqish maqsadida nusxalash, o‘tkazish yoki namoyish etish huquqiga ega bo‘lib, bunday holda, olingan nusxada saytda ko‘rsatilgan asl nusxa bilan bir xil bo‘lgan mualliflik huquqi, tovar belgisi yoki xizmat ko‘rsatish belgisi mavjud bo‘lishi shart. Saytdagi ma‘lumotlarni va materiallarni nusxalash, o‘tkazish, namoyish etish, tarqatish, yuklash, lisenziyalash, o‘zgartirish, chop etish, joylashtirish, qayta ishlash, foydalanish, sotish, qayta shakllantirish yoki boshqa yo‘llar bilan tijorat yoki ommaviy maqsadlarda foydalanish Jamiyatning yozma roziligisiz mumkin emas.

Sayt va uning istalgan sahifasida shartlariga rioya qilinishi kerak bo‘lgan boshqa egalik va mualliflik huquqlari to‘g‘risida ma‘lumotlar mavjud bo‘lishi mumkin. Saytdagi ba‘zi rasm va ma‘lumotlar uchinchi shaxslarning mualliflik huquqi yoki tovar belgisi bo‘lishi mumkin, va ulardan har qanday foydalanish uchinchi shaxslarning shartlari va qoidalari bilan boshqariladi.

3. JAVOBGARLIK VA KAFOLATNI CHEKLASH

Saytdagi ma‘lumotlar “qanday bo‘lsa, shunday” taqdim etiladi va hech qanday, oshkora yoki nazarda tutilgan kafolatlar, shu jumladan, tijoriy ahamiyatga ega, ma‘lum maqsadlar uchun yaroqli va foydalanuvchilarning huquqlarini buzmagani kafolatlarni o‘z ichiga olib, ular bilan cheklanmagan holda, tanishtiruvchi hisoblanadi.

Saytda joylashtirilgan ma'lumotlarda texnik noaniqliklar yoki tipografik xatolar bo'lishi mumkin. Jamiyat vaqti-vaqti bilan, oldindan ogohlantirmasdan, saytdagi ma'lumotlarga o'zgartirishlar kiritadi, shu jumladan, saytda taqdim etilgan mahsulotlar va xizmatlar haqida ma'lumotlarni qo'shadi, o'chiradi, yangilaydi yoki o'zgartiradi. Jamiyat saytda mavjud bo'lgan xatolar yoki ma'lumotlardagi kamchiliklar va saytda joylashgan ma'lumotlarni yangilash uchun javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi.

4. MARKETING

Foydalanuvchi saytga kirishi bilanoq, saytning bannerli konstruksiyasi va boshqa shunga o'xshash marketing vositalarida reklama ma'lumotlarini olishga rozi bo'ladi. Taklif etilayotgan mahsulotlar faqat Jamiyatning istagiga binoan va Jamiyat bilan bog'liq kompaniyalar tomonidan shartnoma yoki boshqa shartlar asosida taqdim etilishi mumkin. Jamiyat uchinchi shaxs kompaniyalarining saytlari yoki reklama vositalarida ko'rsatilgan mahsulotlar va/yoki xizmatlar uchun javobgar emas.

5. BOSHQA INTERNET-SAYTGA HAVOLALAR

Ushbu bandeda sanab o'tilgan veb-saytlar Jamiyat nazorati ostida emas, aksincha, faqat uchinchi shaxslar tomonidan boshqariladi. Shunga muvofiq, Jamiyat bunday veb-saytlarga nisbatan hech qanday arz qilmaydi. Agar Jamiyat uchinchi tomon saytiga havola taqdim etsa, bunday havola yuqorida ko'rsatilgan veb-sayt, uning egalari yoki yetkazib beruvchilariga nisbatan Jamiyat ning ruxsati, roziligi, homiyiligi yoki mansubligini anglatmaydi. Jamiyat ushbu havolalarni faqat ma'lumot olish va foydalanuvchilarning qulayligi uchun taqdim etadi. Jamiyat bunday veb-saytlarda topilgan ma'lumotlarni, mahsulotlarni yoki dasturiy ta'minotlarni tekshirmaydi va nazorat qilmaydi, shuning uchun hech qanday javobgarlikni o'z zimmasiga olmaydi. Jamiyat biror bir havolali veb-saytdan foydalangani uchun to'g'ridan-to'g'ri, vositali, maxsus yoki boshqa zarar yetkazgani, shu jumladan, ma'lumotlaringizni qayta ishlash tizimada har qanday ma'lumot, dastur yoki boshqa axborotlarni yo'qolganligi yoki boshqa sabablar uchun, hatto bunday zarar yetkazilishi mumkinligi to'g'risida aniq ogohlantirilgan bo'lsa ham, boshqa tomonlar oldida javobgar bo'lmaydi.

6. QAYTA ALOQA

Ushbu Shart va qoidalar ommaviy oferta bo'lib, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligiga muvofiq Foydalanuvchilarning cheksiz doirasiga qaratilgan. Jamiyatga yuborilgan har qanday sharhlar, arizalar, savollar, takliflar yoki shunga o'xshash ma'lumotlar (birgalikda "qayta aloqa" deb nomlanuvchi) Jamiyatning mulki hisoblanadi. Jamiyat ma'lumotlarning maxfiyligi to'g'risidagi bildirishnoma asosida qayta aloqadan foydalanadi va uning xavfsizligini O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga muvofiq kafolatlaydi. Jamiyat qayta aloqaga nisbatan hech qanday qo'shimcha majburiyatni o'z zimmasiga olmaydi va O'zbekiston Respublikasi qonunlariga zid bo'lmagan holda, qayta aloqa manbalarini cheklovlarisiz boshqa shaxslarga ko'rsatishi, qayta ishlashi, foydalanishi, ochishi, namoyish etishi, o'zgartirishi va tarqatishi mumkin. Bundan tashqari, Jamiyat qayta aloqa tarkibidagi har qanday g'oya, fikr, nou-xau yoki usullardan istalgan maqsadda, shu jumladan, bunday qayta aloqani o'z ichiga olgan mahsulotlarni ishlab chiqarilishi va marketingi bilan cheklanmagan holda, foydalanishi mumkin.

Jamiyat veb-saytida Jamiyatga elektron ko'rishda o'z savollarini yuborgan foydalanuvchi quyidagilarni qabul qiladi va tasdiqlaydi:

- Qayta aloqada ko'rsatilgan barcha shaxsiy ma'lumotlar haqiqiy va ishonchli bo'lib, Foydalanuvchiga tegishli.
- Foydalanuvchi erkin, ixtiyoriy ravishda va o'z qiziqishlariga asosan o'z shaxsiy ma'lumotlarini qayta ishlashga roziligini bildiradi.

- Foydalanuvchi Jamiyat xizmatlaridan foydalanish uchun Jamiyat tomonidan uchinchi shaxslarga, ular bilan maxfiylik va oshkor etmaslik shartlarini o'z ichiga olgan kelishuvlarga asosan, o'z shaxsiy ma'lumotlari berilishi mumkinligiga roziligini bildiradi.

- Fikr-mulohazalarni qoldirish va so'ralgan (zarur) hujjatlarni biriktirish, Foydalanuvchining Jamiyat xizmatlaridan foydalanishni istashini anglatadi, ammo Jamiyat tomonidan ko'rsatiladigan xizmatlarni kafolatlamaydi.

- Foydalanuvchi alohida sabablarga asosan rad javobini olgan taqdirda, Jamiyatga hech qanday shikoyat qilmaslikka so'zsiz rozi bo'ladi.

- Foydalanuvchi o'zini voyaga yetgan, layoqatli shaxs ekanligini, Jamiyatga ma'lumotlarni taqdim etish uchun qonuniy huquqqa ega va, shuningdek, u taqdim etgan vaqtdagi ma'lumotlar to'liq va ishonchli ekanligini tasdiqlaydi.

- Foydalanuvchi shaxsiy qonuniy maqsadlari va qiziqishlari yo'lida o'z xohish-irodasi bilan harakat qilishini tasdiqlaydi.

- Foydalanuvchi Jamiyat saytida Qayta aloqani to'ldirib va uni Jamiyatga yuborib, ko'rib chiqish natijalari to'g'risidagi ma'lumot xabarlarini Jamiyatdan har qanday usulda va har qanday aloqa kanallari orqali yoki Qayta aloqada ko'rsatilgan murojaat uchun aloqa vositalariga muvofiq olishga to'liq va so'zsiz roziligini bildiradi.

- Jamiyat Arizachining shaxsiy ma'lumotlari ruxsatsiz ishlatilishini oldini olish uchun O'zbekiston Respublikasi qonunchiligida belgilangan barcha imkoniyatlarni ishga soladi. Arizachi, Jamiyatga taqdim etilgan ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasining amaldagi qonunchiligida ko'rsatilgan hollarda, davlat organlariga berilishi mumkinligiga so'zsiz rozi bo'ladi.

- Foydalanuvchi ushbu Bitimga nisbatan o'z mulohazalarini yozma ravishdagi arizasi bilan Jamiyat ofisiga murojaat qilish huquqiga ega.

- Agar Foydalanuvchi ushbu qoidalarga va uning shartlariga rozi bo'lmasa va ularga rioya qilishni istamasa, uning Qayta aloqadagi fikr-mulohazalari ko'rib chiqilmaydi, va Foydalanuvchi tomonidan biron bir shikoyatga asos bo'lmaydi.

7. SHART VA QOIDALARNI BUZISH

Foydalanuvchi Jamiyat tomonidan nazorat ostida bo'lmagan dasturiy ta'minot, serverlar, kompyuter tarmoqlarida texnik nosozliklar yoki uchinchi shaxslarning noqonuniy xatti-harakatlari tufayli Arizachining shaxsiy ma'lumotlari suiiste'mol qilinishi mumkinligi uchun Jamiyat javobgar emasligi haqida xabardor qilinadi va bunga rozi bo'ladi.

Jamiyat, amaldagi shartlar buzilgan taqdirda, Internet tarmog'ining muayyan manzilidan saytga kirishni bloklash huquqi bilan birgalikda, O'zbekiston Respublikasi qonunchiligiga binoan mavjud bo'lgan barcha huquqni himoya qilish vositalariga murojaat qilish huquqini o'zida saqlab qoladi.

Foydalanuvchi saytdan foydalanish shartlari va qoidalarini buzgan taqdirda yoki sayt tomonidan taqdim etilgan xizmatlar va ma'lumotlardan foydalanish orqali Jamiyatga yetkazgan har qanday zarar, da'vo va xarajatlarni qoplashga rozi bo'ladi.